

PIRIMQUL QODIROVNING ADABIY-ESTETIK QARASHLARINI TAHLIL ETISHDA YANGICHA YONDASHUV

Sattorzoda Xurshidabonu Sobir qizi

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Gmail: sattorzodaxurshidabonu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda Pirimqul Qodirovning estetik qarashlari tahlil qilingan bo'lib, tadqiq obyekti sifatida tanlangan asarlar turli nuqtayi nazardan tiplarga ajratilgan va ularni o'rganishda yangicha yondashuvga asoslangan.

Kalit so'zlar: ijod psixologiyasi, ijodiy laboratoriya, adabiy-estetik qarashlar, analiz, sintez, tarixiy asar, ilmiy qarashlar, xotira va esdalik, falsafiy, siyosiy va ijtimoiy g'oyalar.

НОВЫЙ ПОДХОД К АНАЛИЗУ ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ ПИРИМКУЛЯ КАДИРОВА

Сатторзода Хуршидабону Собир кизи

Каршинский государственный университет, базовой докторант

Gmail: : sattorzodaxurshidabonu@gmail.com

Аннотация: В данной тезисе анализируются эстетические взгляды Пиримкула Кадырова, произведения, выбранные в качестве объекта исследования, делятся на типы с разных точек зрения и основаны на новом подходе к их изучению.

Ключевые слова: творческая психология, творческая лаборатория, литературно-эстетические взгляды, анализ, синтез, историческое творчество, научные взгляды, память и воспоминание, философские, политические и социальные идеи.

A NEW APPROACH TO THE ANALYSIS OF THE LITERARY-AESTHETIC VIEWS OF PIRIMQUL KADIROV

Sattorzoda Xurshidabonu Sobir qizi

Karshi State University, PhD student

Gmail: sattorzodaxurshidabonu@gmail.com

Abstract: In this thesis, the aesthetic views of Pirimkul Kadyrov are analyzed, the works selected as the object of research are divided into types from different points of view and based on a new approach to their study.

Key words: *creative psychology, creative laboratory, literary-aesthetic views, analysis, synthesis, historical work, scientific views, memory and remembrance, philosophical, political and social ideas.*

Adabiyotshunoslikning badiiy bo'yoqdorlikni ta'minlaydigan estetik funksiyasidan kelib chiqqan ijodiy jarayon va estetik badiiy tafakkur muammosini muayyan ijodkorning ilmiy-adabiy merosi misolida o'rganish, davr ilmiy-adabiy muhitida ijodkor shaxs va uning asarlarini to'g'ri baholash, estetik konsepsiyasini aniqlash va uni adabiyotshunoslikdagi o'rnini belgilashda muhim hisoblanadi. Ijodkorlarning adabiy nazariy qarashlarini o'rganish ilmiy adabiyot uchun yangi bosqich, yangi tadqiqot yo'nalishi bo'ldi. Jahon adabiyotida ijodkorlarning adabiy-estetik qarashlari ham yetarlicha tadqiq qilingan. Г. А . Соловьев, [1] О.С Лукьянчикова, [2] П.О Николаевна,[3] А.А. Бодровlarning [4] dissertatsiya tadqiqotlari hamda milliy adabiyotimizda ham ko'plab so'nggi yillardagi tadqiqotlar ijod psixologiyasi, ijodiy laboratoriya hamda adabiy- estetik qarashlar uyg'unligiga bag'ishlangan. Milliy adabiyotimizda ham bu kabi tadqiqotlar talaygina. Professor H.Boltaboevning «XX asr o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi»,[8] professor I.Yoqubovning «O'tajon Hoshimning adabiy-tanqidiy faoliyati»,[6] Sultonov Ulug'bek Turg'unboyevichning "Cho'lponning adabiy-estetik qarashlari",[10] Toshmuhammedova Latofat Ismatovnaning "Abdulla Qodiriyning adabiy-estetik qarashlari",[11] U.Jo'raqulovning «Fitratning tadqiqotchilik mahorati» [9] kabi tadqiqotlari shular jumlasidandir.

O'tgan asrning zabardast yozuvchi va tarixchisi Pirmqul Qodirov ijod bilan birgalikda adabiy-nazariy, estetik qarashlarini ham bayon etib kelganligi uning o'z davri ilg'or fikrli va iste'dodli kishisi bo'lganidan dalolatdir. Uni adabiyotshunosligimizda yetarlicha tadqiq qilinmaganligi muammoning o'rganilish zaruratini keltirib chiqaradi. Tadqiqotimizda Pirmqul Qodirovning adabiy-estetik qarashlarini analiz va sintez hamda adabiy va nazariy tahlil yordamida tadqiq etdik. Yozuvchi adabiy estetik qarashlari bilan bog'liq manbalarni o'rganish va saralash davomida ikki usul tanlandi: **Birinchisi**– Pirmqul Qodirovning o'zi yozgan badiiy asarlari: bunda asosan tarixiy asarlari tadqiq qilindi; hamda **ikkinchisi** ilmiy hamda publististik maqolalari va badialarida aks etgan estetik qarashlari, o'ylari va mulohazalari: bunda Pirmqul Qodirovning til haqida yozilgan "Xalq tili va realistic proza", "Til va El", tarixiy- ilmiy "Amir Temur siymosi" badialarini, "Qalb ko'zlari" badialari tahlil qilindi. Adib estetik qarashlarini mazmun jihatidan quyidagi tiplarga ajratdik:

1) ilmiy qarashlar; (adibning "Abdulla Qahhorning urushdan keyingi ijodi" mavzusida yozgan dissertatsiyasi)

1) adabiy-tanqidiy qarashlar; ("Ma'naviyat, modernizm va absurd" maqolasi, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi)

2) ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy mavzudagi mulohazalar; (“Buyuk o'zgarishlar albatta buyuk natijalar beradi”, “Yashashning ma'nosi”, “Til, tarix, muhabbat”, “Mumkin ekan-ku”, “Asarlarimni mehr bilan yozaman”, “Haq so'z uchun kesilgan boshlar”, “Adabiyot yaxshilikdan yashnaydi” sarlavhali maqolalari va adabiy suhbatlar)

3) tarixiy va ilmiy ma'lumot tipidagi adabiy-estetik qarashlar; (“Amir Temur siymosi” badiasi, “Qalb ko'zlari” badiasining I bobi)

4) xotira va esdalik tipidagi estetik qarashlar; (“Qalb ko'zlari” badiasining II va III boblari)

5) adabiy va falsafiy mulohazalar tipidagi qarashlar; (“Oltin ko'prik” maqolasi, “Qalb ko'zlari” badiasining VI va VII boblari)

6) biografik xarakterdagi estetik qarashlar; (Yashashning ma'nosi- “Pirimqul Qodirov-Jajji darslik”, “Asarlarimni mehr bilan yozaman” “Haq so'z uchun kesilgan boshlar” maqolalari va “Qalb ko'zlari” badiasining IV va V boblari))

7) badiiy til hadidagi adabiy mulohazalar (“Til va dil”, “Til va el” va “Xalq tili va realistik proza” badialari)

Ko'rinadiki, mazkur manbaalar Pirimqul Qodirovning nafaqat ijodkor yozuvchilik, balki siyosatchi, adabiyotchi olim, tanqidchi, tilshunos hamda faylasuflik qirralarini ochishda o'ziga xos ochqich vazifasini o'taydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Pirimqul Qodirovning adabiy-estetik tafakkurini o'rganishda mazkur yondashuvga asoslanilsa, uning estetik kredosi yanada yaqqolroq va sayqal topgan holda ma'lum aniqlikda yuzaga chiqadi. Uning turli sohalarda aytib o'tgan firklari, ilgari surgan adabiy, falsafiy, siyosiy va ijtimoiy xarakterdagi g'oyalari yaqin o'tmishda qog'ozga tushirilgan bo'lsa-da, bugungi tezkor fan-texnika zamonida hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ijodkor turli jabhalarda faoliyat ko'rsatmasin, turli sohalarda fikrlamasin, uning xalqparvarligi va millat ma'naviy barkamolligi uchun astoydil xizmat qilishi hamda Vatanining boy o'tmishini tiklashga bo'lgan intilishni ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Соловьев Г. А. Эстетические идеи молодого Белинского.— М.: Худож. лит., 1986. 351
2. Алтынбаева Г. М.Эстетика А. И. Солженицына: теоретическая рефлексия и художественная практика. Дисс. Саратов – 2022
3. Лукьянчикова Оксана Сергеевна жизненный и творческий путь Лидии Шелест: историко-литературный аспект. Дисс. Москва – 2022
4. Николаевна П.О “ Творчество А.А. Делвига: Эстетический идеал и жанровая своеобразие” Ташконт- 1995

5. Бодров А. А. “Эстетическая теория В.Г. Белинского и ее место в общественной жизни России XIX века” Дисс. Самара - 2002
6. Yoqubov I. Otajon Hoshimning adabiy-tanqidiy faoliyati: Fil.f. n. diss. – T.: 1993;
7. Karimov B. Vadud Mahmudning 20-yillar adabiy tanqidchiligidagi o‘rni: Fil.f. n. diss. – T.: 1995;
8. Boltaboev H. Fitratning ilmiy merosi. –T.: Fan, 1996;
9. Jo‘raqulov U. Fitratning tadqiqotchilik mahorati. –T.: O‘zMU, 2003.
10. Sultonov U.T. “Cho‘lponning adabiy –estetik qarashlari” Diss. f.f.n.Toshkent.,ToshDU 1995-yil
11. Toshmammedova L.T. “Abdulla Qodiriyning adabiy-estetik qarashlari”. Diss.f.f.n., Toshkent, O‘zMU -2005
12. P.Qodirov, “Oltin ko‘prik” Jahon adabiyoti 2005-yil, 1-son. 25-26 bet.
Qodirov. Buyuk o‘zgarishlar albatta buyuk natijalar beradi - O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2010-yil 23-aprel,
13. P.Qodirov.Yashashning ma’nosi- ”Sharq yulduzi” 1990-yil, 12-son
14. Pirimqul Qodirov “Qalb ko‘zlari” Toshkent, Ma’naviyat nashriyoti 2001-yil